

AYZEK AZIMOVNING “O‘QITUVCHI ODAM BO‘LGAN EKAN” HIKOYASINI BLUM TAKSANOMIYASI YORDAMIDA DARS TASHKIL QILISH

*Toshtemirova Sevinchbonu,
Amirqulova Sevinch*

*Samarqand davlat universiteti Kattaqo‘rg‘on filiali Pedagogika va tillarni o‘qitish
fakulteti Filologiya va tillarni o‘qitish: o‘zbek tili yo‘nalishi 3-bosqich talabasi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada 6-sinf Mustaqil o‘qish uchun berilgan Ayzek Azimovning “O‘qituvchi odam bo‘lgan ekan” hikoyasini BLUM taksanomiyasi yordamida dars tashkil etish, blum taksanomiyasi haqida ma’lumotlar berilgan.

Kalit so‘zlar: o‘qituvchi, odam, maktab, dars, robot, fantastika, BLUM taksanomiyasi

Annotation: This article provides information about organizing classes and blum taxonomy using BLUM taxonomy of Aizek Azimov's story "The Teacher Was a Man" given for 6th grade Independent Reading.

Keywords: Teacher, Man, School, Lesson, Robot, Fantasy, BLUM Taxonomy

Аннотация: В статье представлена информация об организации занятий и таксономии Блюма с использованием таксономии BLUM рассказа Айзека Азимова «Учитель был мужчиной» для самостоятельного чтения в 6 классе.

Ключевые слова: учитель, человек, школа, урок, робот, фантазия, таксономия BLUM

Umumiy o‘rta ta’lim maktab 6-sinf adabiyot darsligi birmuncha to‘ldirilgan, zamonaviy talablarga javob beradigan darslik hisoblanadi. Aynan, 2022-yil nashr qilingan darslik, oldingi yillarda nash qilingan darslikdan bir muncha farqli bo‘lib, o‘quvchini yosh xususiyati, aynan hozirgi tadqiqotlar natijasi o‘lar har tomonlama mukammal darslik hisoblanadi. Adabiyot darsida o‘quvchi olam, hayot, koinot haqidagi bilimlarga ham ega bo‘ladi hamda fanlar integratsiyasi yordamida boblari ishlab chiqilgan. Masalan, Fantastika va sarguzashtlar olami bobida adabiyot va texnologiya fanlari integratsiyasi beilgan bo‘lib, o‘quvchi dunyo qarashini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu bobda Mustaqil o‘qish uchun Ayzek Azimovning “O‘qituvchi odam bo‘lgan ekan” hikoyasini o‘qish uchun berilgan. Darslik ko‘plab rasmlar va QR codelar bilan boyitilgan. Xuddi shunday, bu hikoyada ham quyidagi rasm berilgan. Darslikda hikoya to‘liq berilmay, bir parcha hamda davomini toppish uchun QR code berib o‘tilgan.



Hikoya muallifi Ayzek

Azimov — amerikalik fantast yozuvchi, fan targ'ibotchisi. Belorussiyaning Petrovichi qishlog'ida tug'ilgan. Mutaxassisligi bioximik. Azimov Ayzeklari uchun falsafa doktori unvonini olgan. Birinchi qissasi 1939-yil e'lon qilingan. Shundan so'ng, "Poydevor va Imperiya", "Men robotman", "Mangulik intihosi", "Neytrino", "Darbadar", "Koinot oqimlari", "Poydevor qirralari", "Poy-devor va Yer" asarlarini e'lon qildi. Ayzek fantastikaga intellektual nasr unsurlarini kiritdi va uni badiiy nasrga yaqinlashtirdi. Bundan tashqari asarlaridan ijtimoiy muammolar ham o'rin olgan. Ayzek ilmiy fantastika asoschilaridan biri Ayzekning bir qancha hikoyalari va "Koinot oqimlari" romani o'zbek tiliga tarjima qilingan.

Amerikalik mashhur psixolog va pedagog Benjamin Blum tomonidan asos solingan savol va topshiriqlar tizimi – bilish faoliyati darajalariga asoslangan o'quv maqsadlari taksonomiyasi zamonaviy ta'lim olamida yetarli darajada keng tarqalgan. O'quv maqsadlari taksonomiyasi o'quvchilar o'zlashtirishining ma'lum bir darajasidan darak beruvchi konkret harakatlari, mazmunan obyektlarni tabiiy o'zaro bog'liqlik asosida murakkablashib borishini ketma-ket joylashtirish orqali turkumlashtirilishi yoki tizimlashtirilishi. Taksonomiya – borliqning murakkab tuzilgan sohalarini tasniflash va sistemalashtirish nazariyasidir.

O'quvchilarning Blum taksonomiyasi bo'yicha bilishga oid o'quv maqsadiga erishganlik darajasini nazorat qilishda ular tomonidan muayyan mavzu bo'yicha ma'lumot va axborotlarni o'zlashtirganlik darajasini aniqlash maqsadga muvofiq. Buning uchun o'quvchi mavzu bo'yicha atamalar, qoidalar, tushunchalar, faktlar, mezonlar, yo'nalishlar, kategoriyalar, eslashi, takrorlay olishi, asar voqealarini bayon qila olishi, ularga ta'rif berishi, ma'lumotlarni qayta ishlashlari, o'z fikrini bayon qilishi, obekt yoki voqeaning o'ziga xos xususiyatlarini ajratib ko'rsatishi kerak bo'ladi.

Blum taksonomiyasi bosqichlari:



1. **BILISH.** Dastlabki tafakkur darajasi bo'lib, bunda o'quvchi atamalarni, aniq qoidalar, tushunchalar, faktlar, mezonlar, yo'nalishlar, kategoriyalar, tasniflar, shuningdek, abstract bilimlar: tamoyillar, aksiomalar, teoremlar, umumlashma fikrlar, strukturalar va shu kabilarni biladi, eslaydi, takrorlaydi, asar voqea-hodisalarini bayon qila oladi.

Bunda, asosan, nazariy ma'lumotlar beriladi. Masalan, Ayzek Azimov kim bo'lgan? Hikoya janri haqida nimalarni bilasiz? Robot, maktab o'qituvchi, so'zlarining izohi.. shu kabi savollar bilan murajjat qilinadi.


2. **TUSHUNISH** darajasidagi tafakkurga ega bo'lganda esa, o'quvchi faktlar, qoidalar, chizmalar, jadvallarni tushunadi, qayta tuza oladi, o'zgartira oladi (so'zdan raqamga yoki obrazga), mavjud ma'lumotlar asosida kelgusi oqibatlarini taxminiy tafsiflay oladi.

Jadvallar yordamida qilish kerak bo'ladi. Buni hikoya obrazlari orqali amalga oshirish mumkin.

QAHRAMON ISMI	QAHRAMON MOS XUSUSIYAT
Mari	Qiziquvchan, 10-yoshli o'quvchi
Tommi

3. **QO'LLASH** darajasidagi tafakkurda o'quvchi olgan bilimlaridan faqat an'anaviy emas, noan'anaviy holatlarda ham foydalana oladi va ularni ma'lum bir model, formula, ko'rsatma asosida to'g'ri qo'llaydi.

Aynan, hikoya yuzasidan qaraydigan bo'lsak, bosh qahramonga o'xshash bo'lgan obraz bilan Ven diagrammasi usulidan foydalanish o'rinli bo'ladi:



Birinchi sinov hikoyasidagi Shahnoza obrazi yordamida amalga oshirmiz

4. TAHLIL QILISH darajasidagi tafakkurda o'quvchi yaxlitning qismlarini va ular o'rtasidagi o'zaro bog'liqliklarni ajrata oladi, mantiqiy fikrlash asosida xatolarni ko'radi, faktlar va oqibatlar orasidagi farqlarni ajratadi, ma'lumotlarning ahamiyatini baholaydi.

Quyidagi savollarni berish mumkin:

1. Nega robotni Mari yoqtirmas edi? 2. Mari nima uchun maktabga borasdan, maktab nomli uyidagi xonaga borardi? 3. Xotira daftarcha nima uchun Marini qiziqishiga sabab bo'ldi?

5. SINTEZ Umumlashtirish darajasidagi tafakkurda o'quvchi ijodiy ish bajaradi, biror tajriba o'tkazish rejasini tuzadi, bir nechta sohalardagi bilimlardan foydalanadi. Ayrim materiallar asosida butunning, yaxlitning obrazini, ko'rinishini yaratadi. Bu bosqich tegishli natijalardan yangi jadval tuzishga urg'u beruvchi ijodiy xarakterdagi faoliyatni taqozo etadi.

Bu qismda chiqargan xulosasi, hikoyadan qanday fikr olgani haqidagi savollarni berish mumkin:

Hikoyadan olgan xulosangiz? Marining maktabi sizga yoqdimi? Nima uchun yoqdi(yoqmadi)? Maktab qanday harakatlanish va shu kabi tarbiyaviy xulosalar beriladi. Yoki "Men Marini o'rnida bo'lganimda" tasurrot matn yozish lozim.

6. BAHOLASH Mazkur kategoriya yuqorida ko'rsatilgan barcha kategoriyal bo'yicha o'quv natijalarga erishishni va aniq ifodalangan mezonlarga asoslanib baholash mulohazalarini taqozo etadi. Ichki va tashqi mezonlar asosida baholaydi, o'quvchi mezonlarni ajrata oladi, ularga rioya qila oladi, mezonlarning xilma-xilligini ko'radi, xulosalarning mavjud ma'lumotlarga mosligini baholaydi, faktlar va baholovchi fikrlar orasidagi farqlarni ajratadi.

Bu bosqichda ikki yo'l tutish mumkin. Birinchisi asarni baholash bo'lib, qanday saviyada yozilgani, bugungi kunda mos kelishi yoki xato-kamchiliklari, yutuqlari kabi masalalarga e'tibor qilinadi. Ikkinch yo'l esa dars shu metod orqali o'quvchilarni baholash hisoblanadi. Yuqoridagi usullarda faollik darajasiga qarab baholanadi

Xulosa: Ushbu maqolada Ayzek Azimovning "O'qituvchi odam bo'lgan ekan" hikoyasini BLUM taksanomiyasi yordamida o'tish texnikasi tushuntirildi. Misollar yoqdamida ko'rsatib berildi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. [O'zME](http://www.uzme.com). Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil
2. Z.Mirzayeva, K.Jalilov Umumiy o'rta ta'lim maktab 6-sinf adabiyot darsligi, T. 2022 B 117
3. Q.Xusanboyeva, R. Niyozmetova Adabiyot o'qitish Metodikasi T, 2020 B 350

4. www.ziyo.net internet sayti
5. www.arxiv.uz internet sayti